1-ŞÖBA · VETERINARIYA MEDITSINASI VA HAYVONLAR SALOMATLIGI

SOĞIN SIGIRLARDA KLINIK MASTIT FARMAKOTERAPIYASINI TAKOMILLAŞTIRIŞ VA PROFILAKTIKASINING ILMIY ASOSLARI

Dosimbetova N.M-SamDVMÇBU Nukus filiali 2-bosqiç magistranti
Roʻzimov V.U – SamDVMÇBU Nukus filiali assistenti v.f.b.f.d., (PhD)

DOI
10.66073/ReFocus-Conf/1311011
NASHR SANASI
13.11.2026 · Nukus
SAHIFALAR
84–86
NASHR HAMKORI
Research Focus
ISSN 2181-3833

IQTIBOS UÇUN Dosimbetova N.M., Roʻzimov V.U. Soğin sigirlarda klinik mastit farmakoterapiyasini takomillaştiriş va profilaktikasining ilmiy asoslari // Veterinariya meditsinasi va çorvaçilikdagi dolzarb muammolar va ularning yeçimlari: xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik anjuman materiallari. – Nukus, 2026. – B. 84–86. – DOI: 10.66073/ReFocus-Conf/1311011

ANNOTATSIYA *Maqolada soğin sigirlarda klinik mastit farmakoterapiyasini takomillaştiriş va kasallikning oldini olişning ilmiy asoslari yoritilgan. Klinik belgilar va qözğatuvçining sezuvçanligini hisobga olgan holda antibakterial, yalliğlanişga qarşi va oğriqsizlantiruvçi vositalarni tanlaş hamda qöllaş tamoyillari bayon etilgan. Yelin salomatligi va sut sifatini saqlaşga qaratilgan profilaktik çoralarga e'tibor qaratilgan.*

KALIT SÖZLAR soğin sigirlar, klinik mastit, farmakoterapiya, sefalosporinlar, antibakterial vositalar, oğriqsizlantiriş, stafilokokklar, streptokokklar, profilaktika.

Mavzuning dolzarbligi. Soğin sigirlarning sut mahsuldorligini saqlaş va veterinariya-sanitariya talablariga javob beradigan sut yetiştirişda mastitni öz vaqtida aniqlaş, davolaş hamda oldini oliş muhim ahamiyatga ega. Adabiyotlarda mastit bilan kasallaniş ayrim xöjaliklarda 20-50 % gaça, mamlakatimiz şaroitida esa 3-30 % oraliğida uçraşi keltirilgan. Yelinning bir çoragi zararlanişi natijasida yillik sut mahsuldorligi 10-20 % ga kamayişi qayd etilgan [1]. Umumiy mastitga oid uşbu ma'lumotlar sut bezi kasalliklariga qarşi kuraşişning iqtisodiy ahamiyatini körsatadi.

Mastitdan keladigan zarar sut miqdorining kamayişi bilan çeklanmaydi. Sutning texnologik sifatining yomonlaşişi, davolaş xarajatlari va sigirlarni muddatidan oldin podadan çiqariş ham xöjalik rentabelligiga salbiy ta'sir körsatadi [1]. Klinik mastitda sutda laxtalar va patologik aralaşmalar paydo bölişi, yelinning zararlangan çoragida şiş, oğriq hamda mahalliy haroratning oşişi kuzatilişi mumkin. Oğir keçgan holatlarda iştahaning pasayişi, umumiy holsizlaniş, tana haroratining kötarilişi va pulsning tezlaşişi davolaşga kompleks yondaşişni talab etadi [2].

Klinik mastit farmakoterapiyasini takomillaştirişda antibakterial preparatlarni asosli tanlaş, yalliğlaniş va oğriqni kamaytiriş hamda sut bezining faoliyatini tiklaşga qaratilgan davolaş usullarini uyğunlaştiriş muhimdir. Şu nuqtayi nazardan, sefalosporin guruhiga

mansub vositalarning davolaşdagi örnini kasallikning klinik keçişi va qözğatuvçining sezuvçanligi bilan boğliq holda baholaş ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Davolaş bilan bir qatorda soğiş gigiyenasiga rioya etiş, yelin holatini muntazam nazorat qiliş va kasallikka moyillik tuğdiruvçi omillarni bartaraf etişga qaratilgan profilaktik tadbirlarni takomillaştiriş zarur [2,3]. Şuning uçun soğin sigirlarda klinik mastitni davolaşda farmakologik jihatdan asoslangan kompleks yondaşuvni şakllantiriş va uni profilaktik çoralar bilan uyğunlaştiriş mazkur mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Maqolaning maqsadi. Soğin sigirlarda klinik mastitning keçiş xususiyatlarini hisobga olgan holda antibakterial, yalliğlanişga qarşi va oğriqsizlantiruvçi vositalarni kompleks qöllaş orqali farmakoterapiyani takomillaştiriş hamda kasallikning oldini olişga qaratilgan profilaktik çora-tadbirlarni ilmiy asoslaş.

Tadqiqot obyekti va uslublari. Tadqiqotlar Qoraqalpoğiston Respublikasi Nukus tumanidagi "Qoniratbay-Mexri" fermer xöjaligida 12 boş soğin sigirda olib borildi. Hayvonlarni saqlaş va oziqlantiriş şaroitlari, soğiş texnologiyasi hamda veterinariya-sanitariya talablariga rioya etilişi örganildi. Sigirlar umumqabul qilingan klinik tekşiriş usullari yordamida körikdan ötkazilib, umumiy holati, yelin terisi, sut bezi parenximasi va sörğiçlarining holati baholandi. Yelindagi şiş, oğriq, mahalliy harorat hamda sutning rangi, konsistensiyasi va patologik aralaşmalar mavjudligiga e'tibor qaratildi. Yaşirin yalliğlanişni aniqlaş uçun olingan sut namunalari MKP-1 sut plastinkasida 5 % li dimastin eritmasi yordamida tekşirildi.

Farmakoterapiya samaradorligini qiyosiy baholaş uçun har birida 6 boşdan iborat taqqoslaş va tajriba guruhlarini şakllantirildi. Guruhlarni tuzişda klinik mastit taşxisi, kasallikning oğirlik darajasi va laktatsiya davrining özaro mosligi hisobga olinişi belgilandi. Davolaş sxemasiga PERFOCEFT, Mastisan, diklofenak va novokainli blokadani kiritiş közda tutildi. PERFOCEFTning vena içiga bir martalik qöllanişi taqdim etilgan yöriqnoma asosida belgilandi. Preparatlarning guruhlar böyiça taqsimoti, aniq dozalari va davolaş davomiyligi amaliy qaydlar asosida körsatiladi.

Davolaş natijalarini yelindagi şiş va oğriqning kamayişi, sutning taşqi körinişi me'yorlaşişi, klinik soğayiş muddati hamda soğaygan hayvonlar uluşi böyiça baholaş rejalaştirildi.

Sigirlarda mastitlarni davolaş va oldini oliş çora tadbirlari. Mastitlarning sabablari va rivojlaniş mexanizmlari xilma-xil. Şuning uçun mastitlarni davolaş ham hamma hollarda bir xilda bölmaydi. Hayvonning umumiy ahvoli, yalliğlanişning xarakteri va mastit sababçilarining xossalari hisobga olingan holda davolaş taşkil etilişi kerak (Teterev I.I. va b., 1997). Mastitning ayrim turlari (yiringli-kataral, fi brinli, gemoragik) kasal hayvonda tana haroratining kötarilişi, iştahaning pasayişi, taşqi ta'sirotlarga befarqlik kuzatiladi. Şuning uçun 150-200 ml 10%-li kalsiy xlorid eritmasi, 400 ml 10%-li glyukoza eritmasiga askorbin kislotasi aralaştirilib, vena qon tomiriga yuboriladi. Zardobli va kataral mastitlarda har 100 ml novokain eritmasiga 300- 500 ming TB hisobida antibiotiklar qöşiladi. Zarur hollarda novokainli blokadani yana 24 soatdan keyin qaytariş mumkin. Bu dorilar turli etiologiyali zardobli va kataral mastitlarni davolaşda yuqori samara beradi.Kasallik qözğatuvçilarni yöqotiş maqsadida mahalliy davolaş bilan birga antibiotiklar bilan davolaş tavsiya etiladi. Buning uçun kasallik qözğatuvçisining antibiotiklarga sezuvçanligi aniqlanib, ular muskul orasiga yuborilgani ma'qul. Çunki hali Yelin parenximasida mikroorganizmlar rivojlanmagan

bölib, davolovçi preparatlar yelin sisternasi orqali yuborilganda aksinça unga mikroorganizmlar tuşişi havfi tuğiladi (B.M.Eşburiyev, 2010). Yelinning gigienasiga e'tibor bermaslik olingan sutning sifati pasayişiga va hayvonlarning turli kasalliklariga olib keladi. Ularning eng keng tarqalgani Mastitdir-sigirning laktatsiya davrida infektsiyalar paydo bölişi va mastit bölişini oldini oliş uçun soğişdan oldin va keyin elin sörğiçlari natriy gidrokarbonatning 1%-li eritmasi va boşqa dezinfeksiyalaş vositalari bilan yuvilişi kerak.

Xulosalar. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarini tahlil qiliş şuni körsatadiki, hozirgi kungaça sigirlarda kataral-yiringli mastitlarni, kelib çiqiş sabablari, kasallikni ertaçi aniqlaş, davolaş va oldini olişning samarali usullarini takomillaştiriş, töliq örganilmagan.

Fermer xöjaliklarning iqtisodiy imkoniyatlarini hisobga olgan holda kataral-yiringli mastitlarni davolaş va oldini olişda samaradorligi yuqori va arzon mahalliy dori vositalardan foydalanişni keng yölga qöyiş, dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Shopoʻlatov J.Sh. Veterinariya spravochnigi. Toshkent: Mehnat, 1989.
2. Eshburiyev B.M. Veterinariya akusherligi. Darslik. Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
3. Djumanov S.M., Karimov M.G., Raxmonov L. Kataral-yiringli mastitlarni davolash va oldini olishni takomillashtirish. Scientific Impulse. 2023;1(9):1856-1860.
4. Кондрахин И.П., Левченко В.И. Диагностика и терапия внутренних болезней животных. Москва: Аквариум-Принт, 2005. С. 652–664.
5. Субботин В.М., Субботина С.Г., Александров И.Д. Современные лекарственные средства в ветеринарии. Ростов-на-Дону: Феникс, 2000.
6. Roʻzimov V.U., Dosimbetova N.M. Sogʻin sigirlarda mastitning klinik xususiyatlari va davolash hamda prafilaktikaning zamonaviy yondashuvlari. Veterinariya meditsinasi.Maxsus son 7. 2026.103-107.

https://doi.org/10.66073/ReFocus-Conf/1311011